



БОТАНИКА СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЮТУҚЛАР ВА ДОЛЗАРБ МУАММОЛАР

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ

МАТЕРИАЛЛАРИ

**2014 йил 11 апрель,
Самарқанд**



Жумладан, лимоннинг меваси, цедраси, донаги ва лимон дарахтининг пўстлоғидан уй шароитида турли шифобахш дорилар тайёрлаш мумкин. Бу дорилар гиповитаминозни, авитаминозни, шамоллашни, қон босимининг кўтарилиб ёки пасайиб кетишини, камқонликни, гижжаларни ҳайдашни, сийдик тош касалликларини, ошқозон-ичак йўлининг касалликларини, моддалар алмашинуви бузилишини, қон кетишини тўхтатишда, қайд қилишда, захарланишда, бод касаллигида, жигар ва ошқозон ости безларини яхшилашда, қандли деабетда, цинга, ангина, ревматизм, касалликларини даволашда ишлатилади. Лимондан лимонад тайёрлаб, тутканок ва терлама касалликларида ичилса, яхши фойда беради.

Шарқ табобатида лимонни жароҳатда, ётоқ касаллигида ва ҳар хил захарланишларда жуда яхши фойдаланишган. Ҳозирги вақтда янги узилган лимон ва унинг пўчоғидан лимон шарбати, мойи олинмока. Лимон пўчоғи настойкасидан жигилдон қайнаши, иштахани очиш, қайд қилишининг олдини олишда фойдаланилади.

Лимондан косметикада ҳам кенг фойдаланиб келинмоқда. Лимон суви юз терисини юмшатади ва оқартиради. Тухум оқининг кўпиртирилганини, глециринни, атирни, лимон суви билан аралашмасидан сепкилли, теридаги пигмент доғларни юқотишда, тери ажинларини йўқ қилишда, терини ёшартиришда ишлатилади.

Лимон шарбатидан тирноқ синувчанлигининг олдини олишда ҳам фойдаланишади. Лимондан соч учун бальзам, крем, лосьон, никоблар ҳам ишлаб чиқаришади.

Шунинг учун табиатдаги ҳар бир ўсимлик ўзига хос хусусиятларга эга, уларни муҳофаза қилиш ҳар биримизнинг бурчимиздир.

CHO'LDA TARQALGAN O'SIMLIKLARNING XILMA-XILLIGI VA ULARNING MUHOFAZASI

U.N.Usanov, B.A.Abduvohidov
Jizzax Davlat pedagogika instituti

O'simliklar tabiatda xilma-xil iqlim sharoitida o'sishga moslashgan. Tabiatdagi o'simliklar o'sayotgan sharoitga bog'liq holda turlicha tik mintaqalarda o'sadi. O'simliklarning tabiiy o'sish mintaqalariga adir, tog', yaylov va cho'llar kiradi. Har bir o'sish mintaqasining o'ziga xos o'simliklar qoplamiga ega. Bulardan cho'l mintaqasini oladigan bo'lsak, u yerda qum uyumlari, sho'r, gipsli va toshli tuproqlar kata maydonlarni egallaydi. Qumli cho'lda oq saksovul bilan birga chala butalar, o'tlar, moxlar o'sadi. Bunday joylarda o'simliklar yarus hosil qilib o'sadi. Yarusning yuqori qavati saksovulning shox-shabbalaridan iborat bo'lib, uning shoxlari bargsiz bo'lganligi sababli kam soya soladi. Shoxlar orasidan undan pastroq joylashgan o'simliklarga quyosh nuri tushib turadi. Keyingi yarusdagi o'simliklar shuvoq va qandimdan iborat. Ularning o'rtasidagi oraliqda boshqoli o'simliklardan selin va iloq uchraydi. Bular keyingi yarusni hosil qiladi. Bundan keyingi yarusda yerga yopishib cho'l moxi-tortula o'sadi. Qumli cho'llar o'simliklarga boy bo'ladi, chunki qum o'simliklarning o'sishi uchun eng qulay sharoit yaratib beradi. Boshqa saxro zonalariga nisbatan qumloq joylarda yog'gan yog'in ko'proq saqlanadi xamda o'simliklar tomonidan yaxshi o'zlashtiriladi. Qumli cho'llarda bir yillik o'simliklarning 143 turi, ya'ni 41% i uchrab, shulardan 98 tasini efemerlar va 45 tasini esa yozgi-kuzgi bir yillik o'simliklar tashkil etadi. Gil tuproqli cho'llar qo'ng'ir bo'z tuprog'ining tarkibida oxak ko'p bo'ladi. Iqlim sharoiti keskin kontinental, yozi issiq va quruq bo'ladi. Iyun, iyul oylarida harorat 40-42°C, ba'zi kunlari 46°C gacha boradi. Havoning yillik o'rtacha harorati +15,50°C. Qishda o'rtacha harorat 0°C ga yaqin, biroq yanvar oyida -37°C ga tushishi mumkin. Gil tuproqli cho'llarda chala buta o'simliklardan asosan shuvoq (*Artemisia diffusa*), partak (*Convolvulus hamadae*) efemer va efemeroidlardan qo'ng'irbosh (*Poa bulbosa*), yaltirbosh (*Bromus tectorum*) qashqar yung'ichqa (*Trigonella*), ko'p yillik monokarpiklardan kovrak (*Ferula foetida*) va shunga o'xshash o'simliklar o'sadi.

Gipsli (toshli) cho'llar Ustyurt, Karsakboy, Mangiqishloq, Qoraqum va Qizilqum massivlarida joylashgan. Bu zonaning tuprog'i taqirsimon kulrang bo'lib, gips tuzlari ko'p bo'ladi. Tuprog'

tarkibida gumus juda kam, uning miqdori 0,4 dan 1% gacha boradi. Bundan tashqari tuproqda karbonat tuzlari ham mavjud. Bu zonada buta o'simliklardan juzg'un (*Calligonum*) va qizilcha (*Ephedra distachya*) o'sadi. Bu zonaning ancha qismini bir yillik efemerlar egallaydi. Bular jumlasiga iloq (*Carex physoides*), qo'ng'irbosh (*Poa bulbosa*) va boshqalar kiradi.

Sho'rxok cho'llar O'rta Osiyoning ancha qismini egallagan bo'lib, ular asosan sho'r sizot suvlari yuza turgan pastqam yerlarda yerlarda tarqalgan.

Aydar sho'rxok Markaziy Qizilqumda, Mingbuloq sho'rxoklari pastqam joylarda uchraydi. Tipik sho'rxok yerlarda o'simlik deyarli o'smaydi. Sho'rxoklarning atrofidagi kam sho'rlangan yerlarda golofit o'simliklar o'sadi. Galofit o'simliklarning xamma organlari etli, sukkulentli, poyasi bargsiz, ko'pchiligining bargi yaxshi taraqqiy etmagan. O'z tarkibidan tashqariga tuz chiqaruvchi golofitlar xam bo'ladi. Ular o'z tanasida joylashgan turli bezlar orqali ortiqcha tuzlarni chiqarib turadi. Bu xil o'simliklar (*Tamarix gracilis*) yulg'un, ajriq (*Aeluropus littoralis*) kabilar kiradi. Galofitlarning eng muhim vakillaridan biri ermon shuvog'idir. Ermon shuvoq (*Artemisia halophila*) chala buta o'simlik bo'lib, balandligi 40-100 sm gacha boradi. Xlorid sulfatli va sulfatli sho'rxok yerlarda yaxshi o'sadi.

O'simliklarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati katta. Tuproqning sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifioslanishi oqibatida o'simliklarni muhofaza qilish zarurati kelib chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, atrof-muhitni hayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e'tibor berildi. Shu jumladan cho'llanish jarayonining oldini olish ishlari Forish tumani Qizilqum chorvachilik xo'jaligi o'simliklar qoplamini muhofaza qilinishini taqozo etmoqda. Chunki bu yerdagi cho'llanish jarayoninig asosiy mexanizmi – antropogen omillar (mol sonining me'yoridan ko'pligi, texnogen omillar ta'siri, suv omborlari, yo'llar qurilishi, daraxt-butalarni kesish, pichan o'rish, yangi yerlarni o'zlashtirish tuproqning sho'rlanishi va eroziyasi) o'simli jamoalariga ta'siri natijasida ularning son va sifat ko'rsatgichlari o'zgarib, hosildorligi va maydonning kamayishiga olib kelishi aniqlandi. Bu jarayon esa ekosistemalarning tarixan tashkil topgan muvozanatining buzilishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 419-sonli «Tashqi muhitni muhofaza qilish» to'g'risidagi qarorida, BMT ning cho'llanishga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya va qarorlarida (1994, 1997, 2005) ham cho'llanish jarayonining oldini olish va unga qarshi kurashish ishlariga katta ahamiyat berilgan.

Bundan tashqari mamlakatimizdagi boshqa o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish to'g'risida qonun va qarorlar qabul qilingan bo'lib bular quyidagilar:

1992-yil 9-dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», 1993-yil 7-mayda «Alohida muhofaza qilinadigan xududlar to'g'risida» 1997-yil 26-dekabrda «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish» to'g'risida, 1999-yilda esa «O'rmon xaqidagi» qonunlar qabul qilindi. Mamlakatimizda 1998-yilda «Biologik xilma-xillikni saqlash. Milliy strategiya va harakat rejasi» dasturi qabul qilingan bo'lib, u o'simlik va hayvonot dunyosining tur tarkibini taxlil qilib boradi, zaruriy xilma-xillikni baholaydi va ekotizimdagi asosiy sinflar maqomini ko'rib chiqadi.

Mamlakatimizda chiqarilayotgan bu qonun va qarorlar insonlarni atrof-muhitga ya'ni o'simliklar va hayvonot dunyosiga nisbatan ekologik ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Chunki insoniyat hozirgi kundagi eng katta muammolardan biri bo'lgan biologik xilma-xillikni saqlab qolishga jiddiy e'tibor qaratishi lozim.

KOVUL O'SIMLIGINING TABIIY ZAHIRALARIDAN OQILONA FOYDALANAYLIK

H.U.Usmonjonova, S.Soliyeva, S.Qo'ziyeva
Jizzax Davlat pedagogika instituti

Capparis-kovul turkumi vakillari jahonda 300 ga yaqin turni o'z ichiga olib asosan quruq iqlimli hududlarda, ayniqsa, Afrika qit'asida keng tarqalgan.

O'zbekcha *tikonli kovul* (*Capparis spinosa* L.) deb nomlanadigan o'simlik G'arbiy Osiyo va Afrikaning arid zonalarida landshaft hosil qiladi. Bu o'simlikning arabcha nomi kever-kovar deb

МУНДАРИЖА

I-шўба.

Ўсимликлар табиий манбаларининг хилма-хиллиги, муҳофазаси ва улардан
фойдаланиш истикболлари

Келдиёров Х.А. Профессор Н.А. Амирхановнинг илмий ва педагогик фаолияти ҳақида.....	3
Тўхтаев Б.Е., Шомуродов Х.Ф. Ўзбекистонда ботаника фанининг устивор йўналишлари	6
Ҳамидов Ф.Х., Махсудова Р.С., Махмудов В.М. Фарғона водийси ўсимликларининг муҳофазаси.....	8
Юлдашев А.С. Ботаническое ресурсосведение в Узбекистане.....	11
Бўриев С.Б., Рашидов Н.Э., Каландарова Д.С., Кенжаев Ж. Балиқчилик ҳовузларидаги микроскопик ва юксак сув ўсимликлари, улардан балиқчиликда фойдаланиш.....	14
Мавлонов Х., Эшонқулов Э.С. Табиий янтоқзорлар ва улардан фойдаланиш истикболлари.....	15
Махмудов М.М., Халилов Х.Р., Ҳамидов А.А., Ортикова Л.С., Синдаров Ш.К., Махмудова Г.М. Биоэкологические свойства пустынных кормовых растений в условиях культуры Нуратинских адыров.....	17
Rahmonqulov U., Dadayeva G.S., Sulaymonov X.X. Zaharli, ammo shifobaxsh afsonak o'simligi haqida.....	19
Беишко Н.Ю., Тожибаев К.Ш., Баташов А.Р., Азимова Д.Э. О кадастре объектов растительного мира Джизакской области.....	20
Хайдаров Х.К., Тошпулатов Й., Жалов Х.Х. Создание электронной базы данных гербарии Самаркандского госуниверситета.....	22
Юлдашев А.С., Хужанов А.Н. Ценопопуляционная характеристика <i>Helichrysum</i> <i>maracandicum</i> M.Pop.ex. Kirp.....	23
Махмудов А.В., Тўхтаев Б.Ё. <i>Crocus alatavicus</i> Regelet Semen. ва <i>Crocus korolkovii</i> Regel Maw. лар барглариининг интродукция шароитида морфобиологик хусусиятлари.....	25
Наралиева Н.М., Сидиқжанов Н.М. Фарғона водийсининг шимолий адирлари - алоҳида ахамиятга эга ботаник ҳудуд сифатида.....	26
Джумаева З. Зирақўтларнинг биохилма-хиллигини сақлаш ва улардан самарали фойдаланиш масалалари.....	28
Abdullayeva N., Altamatova Z. Jizzax viloyati hududida to'plangan etnobotanik ma'lumotlar.....	29
Avalboyev O.N., Rahmonqulov U., Ne'matova M.A. G'arbiy Pomir-Oloy tizmasida uchraydigan <i>Ferula</i> l. turkumi turlarining shifobaxshlik xususiyatlari.....	30
Ишонқулова Д.У., Солиева С.К. <i>Peganum harmala</i> нинг ноёб хусусиятлари.....	32
Қодиров Ф.Ў., Тўрақулова В.Х. Лимон ўсимлигининг асосий хусусиятлари.....	34
Usanov U.N., Abduvohidov B.A. Cho'lda tarqalgan o'simliklarning xilma-xilligi va ularning muhofazasi.....	35
Usmonjonova H.U., Soliyeva S., Qo'ziyeva S. Kovul o'simligining tabiiy zahiralardan oqilona foydalanaylik.....	36
Abduvohidov B., Usanov U.N. Baxmal tog' ekosistemasidagi ayrim o'simliklarning farmakognozik talqini va ularning muhofazasi.....	38
Қаришбоева Н.Х., Хайдаров Б.У., Самандарова З.Л. <i>Fumaria vaillantii</i> Loisel илдиэ системасининг шаклланиши.....	39
Эшонқулова Д.С., Имомова Д.А. Эрмон – дардга дармон.....	40
Tojiboyev Sh., Vohidov E., Ashurmatov R. Atmosfera havosining tozaligini saqlashda o'simliklarning tutgan o'rni va gazga chidamlilik darajasi.....	42
Эргашева Х.Э., Юсупов Р.А. Экология и источник формирования водорослей Андижанского водохранилища.....	44